



Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-iyul

RAQAMLAR:


- 2018 yil yanvar-iyul oylarida bozor xizmatlari hajmi 2307,9 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 125,6 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 1275,0 ming.so'mni tashkil etdi.

Innovatsion xizmatlarni joriy etish va an'anaviy xizmatlar sifatini oshirish bo'yicha maqsadli kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirilishi mamlakat iqtisodiyotida xizmatlar sohasining ulushining oshishiga olib keladi.


2018 yil yanvar-iyul oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2307,9 mlrd.so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 105,8 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni transport xizmatlari (28,6 %) tashkil etadi.

2018 yil yanvar-iyul oylarida xizmatlar tarkibi (jami hajmga nisbatan, %)




Ishlab chiqarilgan xizmatlar hajmining taqqoslanishi, mlrd.so'm



Transport xizmatlari - 660,0 mlrd.so'm, savdo xizmatlari– 645,8 mlrd.so'm, boshqa xizmatlar - 531,3 mlrd.so'm, moliyaviy xizmatlar - 298,5 mlrd.so'm, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari - 172,3 mlrd.so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan oshganligi qayd etildi.

Zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish, aholining ta'lim va madaniy darajasini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar doirasini kengaytirishga yordam beradi.

2018 yil yanvar-iyul oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



2018 yil yanvar-iyul oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar (125,6%), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (112,9 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (108,2 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (105,5 %), kabi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

**2018 yil yanvar-iyul oylarida hududlar bo'yicha
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**

	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar- jami	2307,9	105,8
shu jumladan asosiy turlari bo'yicha:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	172,3	112,9
moliyaviy xizmatlar	298,5	125,6
transport xizmatlari	660,0	102,4
shu jumladan: avtotransport xizmati	632,1	102,3
yashash va ovqatlanish xizmatlari	55,6	103,3
savdo xizmatlari	645,8	102,5
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	80,1	100,5
tna'lim sohasidagi xizmatlar	63,8	108,2
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	40,4	105,5
ijara xizmatlari	53,3	102,4
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yi- cha xizmatlar	85,4	100,5
shaxsiy xizmatlar	73,2	100,0
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	20,5	103,1
boshqa xizmatlar	59,0	105,3